



### 3- amaliy ish

“Metallar” mavzusi bo‘yicha tajribaviy masalalar yechish

1. To‘rtta raqamlangan probirkada quyidagi moddalar berilgan:
  - a) natriy gidroksid;
  - b) kalsiy karbonat;
  - c) alyuminiy sulfat;
  - d) temir (III)-xlorid.Qaysi probirkada qanday modda borligini kimyoviy tajribalar yordamida aniqlang.
2. Sizga berilgan misning suvda eruvchan tuzidan foydalananib, qanday usullar bilan mis (II)-oksid hosil qila olasiz?
3. Laboratoriyadagi mavjud reaktiv va jihozlardan foydalanib, to‘rt xil usul bilan rux xlorid tuzini hosil qiling?

#### TOPSHIRIQLAR:

1. Yuqorida bajarilgan har bir tajribada sodir bo‘lgan kimyoviy reaksiyalarning tenglamalarini yozing.
2. Sodir bo‘lgan o‘zgarishlarni izohlang.
3. Bajarilgan ish yuzasidan hisobot yozing.